

## **GRADUAL SINONIMLARNING IZOHLI LUG'ATLARDA BERILISHI**

*Abduraximova shaxnoza Ilxom qizi*  
*ATMU 1-kurs magistranti*

### *Annotatsiya*

**Gradual sinonimlarning izohli lug'atlarda berilishi yuzasidan mulohazalar . Bu borada tilshunos olimlarimizning izlanishlari hamda yaratgan yangiliklari. Gradual sinonimlar badiiy va so'zlashuv uslubi uchun juda qulay ekanligi haqida fikr yuritiladi. Tilshunosligimizda sinonim qatorlar juda ko'p uchraydi , ammo biz uni qaysi o'rinlarda to'g'ri ishlata bilishimiz, muhimligi haqida ushbu maqolada aytib o'tilgan.**

Kalit so'zlar : gradual sinonim, sinonimik qatorlar, uslubiyat, tilshunoslik, lingvopoetika, kommunikatsiya, ming lug'at, gradual.....

Kirish. Til-jamiyat taraqqiyoti, tafakkuri va madaniyat bilan uzviy bog'liq murakkab tizimdir. Til boyligining muhim qatlamlaridan biri sinonimlar hisoblanadai. Sinonimlar nutqni boyitadi, fikrni aniq, ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi . Ayniqsa, gradual sinonimlar ma'no darajasi ,kuchi yoki intensivligi bilan farqlanadigan sinonim birliklar tilshunoslikda alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday sinonimlarni to'g'ri aniqlash va qo'llashda ming izohli lug'atlar bizga yordam beradigan qulay manbadir.

Adabiyotlar tahlili va metod. Gradual sinonimlar tushunchasi bir xil yoki yaqin ma'noni ifodalovchi til birliklaridir. Biroq barcha sinonimlar mutlaq bir xil bo'lavermaydi . Ular orasida ma'no kuchi, darajasi, ifoda intensivligi jihatidan farqlanuvchi guruh mavjud bo'lib ,ular gradual sinonimlar deb ataladi . Asosiy vazifasi esa ma'lum bir belgining kamayib yoki ortib boruvchi darajalarini ifodalaydi.

Masalan :

Yaxshi-a'lo-zo'r

Chiroyli-go'zal-maftunkor

Sovuq-juda sovuq-muzdek

Kulmoq-tirjaymoq-jilmaymoq-qah-qah otib kulmoq

Bu namunalarda so'zlar bir ma'noli maydonga mansub bo'lsa-da, ifodalangan holatning darajasi turlichadir, shuning uchun gradual sinonimlarda birliklar orasidagi farq kontekstdan aniq bo'lib turadi.

## **GRADUAL SINONIMLARNING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI.**

Gradual sinonimlar leksik-semantik tizimda muhim o'rin egallaydi.

1. Nuqt aniqligini ta'minlaydi—so'zlovchi holatini eng mos darajada ifodalash imkoniga ega bo'ladi.
2. Badiiylikni oshiradi --adabiy matnlarda obrazlilik va emotsionallikni kuchaytiradi.
3. Til boyligini namoyon qiladi—tilning rivojlanganlik darajasini ko'rsatadi. Shu sababli gradual sinonimlarni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

### **Ming izohli lug'atlar haqida umumiy tushuncha .**

Ularda --bu so'zlarning ma'nosi, qo'llanish doirasi, uslubiy xususiyatlari keng va batafsil izohlangan lug'atlardir. Bunday lug'atlarda:

So'zning asosiy va ko'chma ma'nolari, sinonimik qatlamlari

Stilistik ranglari, nutqda qo'llanilish namunalari beriladi. aynan shunday lug'atlar gradual sinonimlarni to'g'ri tushunish va farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda sinonimlarning gradualligi insonning nutqiy faoliyatini rang-barangligini ta'minlovchi muhim manbadir.

### **Gradual sinonimlarning lug'atlarda berilish usullari**

Ming izohli lug'atlarda gradual sinonimlar bir necha usulda yoritiladi :

#### 1. Darajali izoh berish

So'zlar ma'no kuchiga ko'ra izchil tartibda joylashtiriladi

Masalan:

Qo'rqmoq-cho'chimoq-dahshatga tushmoq

Bu tartib o'quvchiga ma'no kuchining oshib borishini aniq ko'rsatadi.

## 2. Stilistik belgilash

Gradual sinonimlar ko'pincha uslubiy jihatdan farqlanadi . Lug'atlarda ular "So'zlashuv " , " badiiy" , "kitobiy" kabi belgilar bilan ajratiladi.

3. Namunalar orqali tushuntirish har bir sinonim real nutqiy misollar bilan izohlanadi. Bu usul ,ayniqsa, o'quvchilar va talabalar uchun samaralidir. Gradual sinonimlarning lug'atlardagi ahamiyati juda o'rinli tarzda beriladi, ya'ni izlanuvchi shaxs uning ketma -ketligini ko'rishi va tanlab ishlatishi mumkin bo'ladi.

Ayniqsa, Filologiya yo'nalishidagi talabalarning leksik kompetensiyasini shakllantirishda bu lug'atlar muhim vosita hisoblanadi.

## **Zamonaviy lug'atchilikda gradual sinonimlar**

Bugungi kunda elektron va onlayn lug'atlar rivojlanib borayotgani sababli gradual sinonimlarni interaktiv tarzda berish imkoniyati ham kengayadi. Masalan: darajali jadval, rangli belgilash , konteksga mos tavsiyalar. Bu esa lug'atchilikda yanada samarali va qulaydir.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, gradual sinonimlar tilning nozik va muhim qatlamlaridan biridir. Ularni to'g'ri anglash va qo'llashda ming izohli lug'atlar muhim ilmiy -amaliy manba hisoblanadi. Bunday lug'atlar so'zlarning ma'no darajalarini ochib berish , nutq aniqligi va madaniyatini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Kelajakda gradual sinonimlarni yanada mukammal yoritish lug'atchilikning 1 dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Yuqorida "Ming 'lug'ati haqida gapirib o'tdim , buning ma'nosi esa so'zlarning leksik jihatdan turli ma'nolarni aniqlashtirib berishidir. Gradual so'zi esa

**Bosqichma -bosqich, asta-sekin , sekin-asta rivojlanish degan ma'nolarni anglatadi. Bundan ko'rinib turibdiki , gradual sinonimlar lug'ati biz uchun juda kerakli va o'rinli manbadir.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullayev .S (2010) ‘‘O‘zbek tilining leksikasi va sinonimlari’’  
Toshkent.Fan
2. Akbarova. M (2015) ‘‘ sinonimlarning tilshunoslikdagi o‘rni ‘‘ Toshkent.  
O‘qituvchi
3. Sobirov. B ( 2017) ‘‘Gradual sinonimlar va ularning qo‘llanilishi’’  
‘‘Tilshunoslik’’ jurnali 45-46-bet
4. Tolipov. D (2009) sinonimlar va ularning nutqdagi roli. Toshkent. Fan va  
tenologiya
5. Uloqov .F ( 2011) lingvistik leksikografiya va lugatlar. Toshkent. O‘z.MU
6. Tilshunoslik ilmiy to‘plami 2,78-92.
7. Ziyo. Net, googel (internet saytlari)